



"TASHMETROPROYEKT" VA UNING TARKIBIY QISMLARI, UNING  
TOSHKENT METROPOLITENI FAOLIYATINI TASHKIL QILISHDAGI O'RNI

Nurbek Matyakubov

Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda Tashmetroproyekt institutining tashkil topishi, uning tarkibiy tuzilmasi hamda Toshkent metropoliteni faoliyatini tashkil etishdagi o'rni kompleks tahlil etiladi. Tadqiqotda institutning asosiy bo'limlari, jumladan, arxitektura-loyihalash, konstruktiv muhandislik, geologik-qidiruv va transport rejalashtirish yo'nalishlari faoliyati yoritiladi. Shuningdek, mazkur institutning metropoliten qurilishi va ekspluatatsiyasi jarayonlarida ilmiy-texnik asoslarni ishlab chiqish, texnik-iqtisodiy yechimlarni shakllantirish hamda infratuzilma barqarorligini ta'minlashdagi roli ochib beriladi. Tadqiqot natijasida "Tashmetroproyekt"ning Toshkent metropoliteni rivojidadagi strategik ahamiyati asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Tashmetroproyekt, Toshkent metropoliteni, loyiha instituti, muhandislik yechimlari, transport infratuzilmasi, metro qurilishi, ekspluatatsiya, texnik loyihalash.

**Аннотация:** В данной тезисе рассматривается деятельность Ташметропроект, его структура и роль в организации функционирования Ташкентский метрополитен. В работе анализируются основные структурные подразделения института, включая архитектурно-проектные, инженерно-конструкторские, геолого-разведочные и транспортно-планировочные отделы. Особое внимание уделяется роли института в разработке научно-технических решений, технико-экономическом обосновании проектов, а также обеспечении устойчивого развития метрополитена. Обосновывается стратегическое значение института «Ташметропроект» в развитии транспортной инфраструктуры города.

**Ключевые слова:** Ташметропроект, Ташкентский метрополитен, проектный институт, инженерные решения, транспортная инфраструктура, строительство метро, эксплуатация, техническое проектирование.

**Abstract:** This thesis examines the activities of Tashmetroproyekt, its organizational structure, and its role in managing and supporting the functioning of the Tashkent Metro. The study analyzes the institute's main structural divisions, including architectural design, structural engineering, geological survey, and transport planning departments. Particular attention is paid to its contribution to the development of scientific and technical solutions, feasibility studies, and the sustainable development of metro infrastructure. The research highlights the strategic importance of "Tashmetroproyekt" in the development of Tashkent's urban transport system.

**Keywords:** Tashmetroproyekt, Tashkent Metro, design institute, engineering solutions, transport infrastructure, metro construction, operation, technical design.

Butun faoliyati davomida "Tashmetroproyekt" shahar yo'lovchi tashish masalalarini hal eta oladigan, metropoliten stansiyalari kabi noyob me'moriy inshootlarni yaratishga

qodir, shahar rivojlanish istiqbollari inobatga olgan holda metro tarmoqlarini loyihalash salohiyatiga ega bo'lgan milliy kadrlar tayyorlaydigan haqiqiy maktabga aylangan edi. Shuningdek, institut shahar xo'jaligi obyektlari — transport va piyodalar tonnellarini, kommunikatsiya kollektorlarini, yer osti garajlari va ombor xo'jaligi inshootlarini, yer osti sabzavot va meva saqlash omborlarini loyihalash, tarixiy-me'moriy yodgorliklarni asrab-avaylash ishlariga ko'maklashish kabi yo'nalishlarda ham salmoqli tajriba to'plagan edi.

"Tashmetroproyekt" 1991-yilda institut respublikada birinchilardan bo'lib jamoa korxonasi maqomini oldi[1]. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng institut o'z bo'linmalari kuchi bilan noyob obyektlarni loyihalash ishlarini davom ettirdi. Tashkilotning tarkibiy bo'linmalari haqida quyida qisqacha ma'lumot keltiriladi.

**"Geologik loyihalash" bo'linmasi.** Mazkur bo'linmaning asosiy vazifalari muhandislik-geologik qidiruv ishlari natijalari asosida qurilish jarayonida suv sathini pasaytirish, metropoliten liniyalari va boshqa yer osti inshootlarini artezian suv bilan ta'minlash bo'yicha loyiha hujjatlarini ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, u qurilayotgan obyektlarda geotexnik nazorat hamda mualliflik nazoratini amalga oshiradi.

**"Trassa va yo'llarni loyihalash" bo'linmasi.** Bo'linmaning asosiy vazifalari loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini, ishchi loyihalar va ishchi hujjatlarni ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ular trassa yo'nalishi, yo'lning yuqori tuzilmasi va kontakt relsi, yo'lovchilarni axborot bilan ta'minlash tizimlari, metropolitenning ekspluatatsion jihozlari hamda boshqa yer osti inshootlarini qamrab oladi. Bundan tashqari, mazkur bo'linma mualliflik nazoratini ham amalga oshiradi.

**"Arxitekturaviy loyihalash" bo'linmasi.** Mazkur bo'linmaning asosiy vazifalari stansiyalar, vestibyullar, piyodalar o'tish yo'laklari, depo inshootlari, ekspluatatsion xizmatlar binolari hamda boshqa obyektlarning arxitektura va hajmiy-rejaviy yechimlari bo'yicha loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini, ishchi loyihalar va ishchi hujjatlarni ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, stansiyalar interyerini Bosh arxitektura va shaharsozlik bosh boshqarmasida (GlavUAG) tasdiqlash uchun namoyish (demonstratsion) materiallarni tayyorlash, loyihalashtirilayotgan inshootlar bo'yicha qurilishning smeta qiymatini aniqlash maqsadida ish hajmlarini hisoblab chiqish ham bo'linma zimmasiga yuklatilgan[2].

**"Qurilish konstruksiyalarini loyihalash" bo'linmasi.** Bo'linmaning asosiy vazifalari metropoliten qurilish konstruksiyalari bo'yicha loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini, ishchi loyihalar va ishchi hujjatlarni ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, qurilishning smeta qiymatini aniqlash uchun ishlab chiqilayotgan loyihalar bo'yicha ish hajmlarini hisoblash ham uning muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi.

**"Elektrotexnika qurilmalari, avtomatika va aloqa tizimlarini loyihalash" bo'linmasi.** Mazkur bo'linmaning asosiy vazifalari metropolitenlar hamda boshqa yer osti va yer usti inshootlari uchun elektr ta'minoti, avtomatika va telemexanika qurilmalari, turli aloqa turlari va elektr soat tizimlari bo'yicha loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini, ishchi loyihalar hamda ishchi hujjatlarni ishlab chiqishdan iborat.

**"Santexnika qurilmalari, issiqlik ta'minoti va ventilyatsiyani loyihalash" bo'linmasi.** Bo'linmaning asosiy vazifalari metropoliten liniyalari hamda boshqa yer osti va yer usti inshootlarida suv ta'minoti, kanalizatsiya, suv chiqarish (drenaj), issiqlik

ta'minoti, ventilyatsiya va isitish tizimlari bo'yicha loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini, ishchi loyihalar va ishchi hujjatlarni ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, qurilishning smeta qiymatini aniqlash maqsadida ishlab chiqilayotgan loyihalar bo'yicha ish hajmlarini hisoblab chiqish ham mazkur bo'linma zimmasiga yuklatilgan.

**"Qurilish ishlarini tashkil etish va mexanizatsiya qilishni loyihalash"** bo'linmasi. Mazkur bo'linma metropoliten va boshqa yer osti hamda yer usti inshootlarini qurilishini tashkil etish bo'yicha loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslarini, ishchi loyihalar va ishchi hujjatlarni ishlab chiqadi. Shuningdek, u SMU va boshqa tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan ishlarni bajarish loyihalarini tasdiqlash, loyihalardagi asosiy texnik yechimlarning iqtisodiy ko'rsatkichlariga mosligini tekshirish, loyihani ekspluatatsion va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish ishlarini amalga oshiradi.

**"Smeta ishlab chiqish va tuzish"** bo'linmasi. Bu bo'linma barcha turdagi xizmatlar bo'yicha taqdim etilgan ish hajmlari asosida smetalarni tuzish, qo'shimcha birlik narxlari va kalkulyatsiyalarni ishlab chiqish, qurilishning smeta qiymatini tahlil qilish hamda 1 km liniya qiymatini aniqlash vazifalarini bajaradi[3].

**"Elektrotexnika qurilmalari, avtomatika va aloqa tizimlarini loyihalash"** bo'linmasi. Mazkur bo'lim 1972-yilda tashkil etilgan bo'lib, dastlab faqat uch kishidan iborat edi. Shu tarkib bilan Chilonzor metropoliten liniyasi uchun elektrotexnika qurilmalarini loyihalash ishlari boshlangan edi[4].

Metropoliten transportning o'ziga xos turidir va dunyoda uning loyihalash texnologiyasi, tajribasi va bilimiga ega bo'lgan tashkilotlar juda kam. Shu sababli, institut tashkil etilgan dastlabki davrda "Metrogiprotrans" mutaxassislarining yordami beqiyos bo'lgan. Birinchi metro liniyasini loyihalash ishlarini aynan "Metrogiprotrans" mutaxassislari boshlagan va ular juda katta hajmdagi elektrotexnika ishlarini amalga oshirgan. Shuningdek, bo'lim xodimlari moskvalik mutaxassislar bilan birgalikda birinchi liniya stansiyalarining elektrtexnika qurilmalarini loyihalash ishlarini boshlagan. Ish hajmi va turkumlari ortishi bilan bo'lim faoliyati kengaydi. Bo'limda elektrotexnika, avtomatika va aloqa kabi uchta guruh faoliyat ko'rsatadi. Bo'limning birinchi rahbari Valentin Nikolaevich Karachik bo'lgan. Uning rahbarligi ostida birinchi metro liniyasi stansiyalari uchun elektr ta'minoti, avtomatika va aloqa tizimlarini loyihalash ishlari olib borilgan. Keyingi yillarda bo'limni Anatoliy Nikolaevich Volkov boshqargan. U Toshkent metropolitenining birinchi va ikkinchi liniyalarini loyihalashda sezilarli hissa qo'shgan. Uning rahbarligi ostida ikkinchi liniya stansiyalarining elektr ta'minoti, avtomatika, telemexanika va aloqa tizimlari loyihalari ishlab chiqilgan. Shuningdek, A. N. Volkov ikkinchi liniya uchun qo'shimcha qurilmalarni loyihalashda ham katta hissa qo'shgan. Bo'limdagi dastlabki mutaxassislardan B. I. Belkin bo'lgan. U katta muhandislik lavozimidan bo'limning bosh mutaxassisi darajasigacha yetgan. Uzoq yillar davomida u bo'limda faoliyat yuritib kelgan, bir nechta yosh mutaxassislar avlodini tarbiyalagan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Тошкент метроси : иккинчи навбат // Совет Ўзбекистони. - 1978.- 14 ноябр.



2. Қобилжонов Э. Факат метролар ҳақида// Биржа. - 2009. - 11 апр.
3. Адилов А. Метро шагаёт дaльшe : [о Ташк. метрополитене] // Правда Востока. - 1979. - 21 янв.
4. Холмуродов М. Метро давом этмокда : [Ташметропроект институтининг директори, техника фанлари кандидаты М. Холмуродов билан суҳбат] // Фан ва турмуш. - 1978. - № 3. - Б. 30.
5. Худойберганов, Э. Янги станцияларда иш қизғин : [метрополитенда] // Тошкент окшоми. - 1978. - 16 май.